



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:
MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

Buxoro, 2022-yil, 29-mart

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ
БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО
БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР
ВА ИСТИҚБОЛЛАР

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2022 йил, 29 март

Илмий анжуманнинг дастурий қўмитаси

- | | | |
|---------------|---|--|
| О. Х.Хамидов | – | Бухоро давлат университети ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор, раис. |
| О.С.Қаҳҳоров | – | илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Ў.У. Рашидов | – | молия ва иқтисод ишлари бўйича проректор, аъзо. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ю.А. Пўлотова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, котиб. |

Илмий анжуманнинг ташкилий қўмитаси

- | | | |
|----------------|---|--|
| О.С.Қаҳҳоров | – | Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис муовини. |
| Қ.Р.Тўхсонов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети декани, раис муовини. |
| Г.Т. Зарипов | – | ИТ, И ва ИПКТБ бўлими бошлиғи, аъзо. |
| Ю.Ю.Азимов | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| Н.О. Сафарова | – | мактабгача ва бошланғич таълим факультети ёшлар билан ишлаш бўйича декан ўринбосари, аъзо. |
| А.Р.Ҳамроев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси мудири, аъзо. |
| Ф.М.Қосимов | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Ғ.М.Сайфуллаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти, аъзо. |
| Н.Б.Адизова | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.А.Қўлдошев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |
| Р.Х.Жумаев | – | бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси, аъзо. |

Тўшам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартдаги 101-ф-сонли фармойиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2022 йилда ҳалқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2022 йил 29 март куни Бухоро давлат университети Бошланғич таълим методикаси кафедрасида “Бошланғич таълимда ҳалқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар” мавзусидаги ҳалқаро илмий-амалий анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул муҳаррир:

А.Р.Ҳамроев, педагогика фанлари доктори, доцент

Тақризчилар:

Б.Р.Адизов, педагогика фанлари доктори, профессор

Ю.Ю.Азимов, филология фанлари номзоди, доцент

4. Sirdaryo ... va Qoradaryo kabi daryolarning birlashishidan hosil bo'lib, bu sirni hammadan sir tutib yasharkan.

5. Ayniqsa, opalari ... "yaxshilik qil-u, suvga ot, suv bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa Xoliq bilur", degan maqolni tez-tez tarorlar ekan.

6. Birlikda ... bor.

3-Topshiriq. *Savollarga javob bering.*

1. Uch opa-singil daryolarning nomlarini ayting.

2. Bu daryolar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni bilasizmi?

3. Bu daryolar qaysi davlatdan oqib o'tadi?

4. Orol dengiziga quyiladigan daryo nomini ayting.

5. Qaysi daryo uchta davlat hududidan oqadi?

6. Odamlar bir-birini qanday duo qilar ekan? Nima uchun?

7. Opa-singil daryolar nimadan hafa bo'lishar ekan?

8. Siz yana qanday daryolarni bilasiz?

9. Siz nima deb o'ylaysiz, muallif bu ertakni nima maqsadda yozgan?

Demak, interfaol metodlar yuqori bilim, muloqot, faollik, tezkor fikrlash, jamoaviylik, motivatsiya hamda o'z fikrini og'zaki va yozma erkin bayon eta olish qobiliyatini ta'minlash imkonini beradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektordagi nutqi. –Toshkent. 2022-y. 19-yanvar.

2. Masharipova U. The Development of Innovative Culture of Primary School Teachers as a Pedagogical Problem. *Международный журнал прогрессивных наук и технологий (IJPSAT, ISSN: 2509-0119) (Vol. 19 No. 1 February 2020, pp. 285-287* <http://ijpsat.ijshjournals.org/index.php/ijpsat/article/view/1667/885>

3. Umarova M, Hamraqulova X, Tojoboyeva R "Oqish kitobi" 3- sinflar uchun "O'qituvchi" nashryot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2019. -216 b.

4. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu

PIRLS HALQARO BAHOLASH TIZIMIGA KITOB O`QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI ERISHISH

Y.Y.Azimov

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti f.f.n.

R.A. Qo'ldoshev.

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida mudiri, p.f.b.f.d (PhD)

Mazkur maqolada PIRLS xalqaro baholash tizimiga o'tishga kitob o'qish madaniyatini shakllantirishning o'zini borasida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Tayanch so'zlar: PIRLS, xalqaro qiyosiy baholash, kitob o'qish madaniyati, O'qish daftari, she'riy kitoblar, axborot-resurs markazlari, kitoblar burchagi, xalqaro o'qish savodxonligi.

В данной статье рассматривается роль культуры чтения при переходе на международную систему оценивания PIRLS.

Ключевые слова: PIRLS, международная сравнительная оценка, культура чтения, книга чтения, книги поэзии, центры информационных ресурсов, книжный уголок, книжный уголок, международная грамотность чтения.

This article discusses the role of reading culture in the transition to the international PIRLS assessment system.

Keywords: PIRLS, international comparative assessment, reading culture, reading book, poetry books, information resource centers, book corner, book corner, international reading literacy.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi Prezidentimizning farmoyishlarini bu boradagi birinchi ustuvor qadam desak mubolag'a bo'lmaydi. Gap yoshlar tarbiyasi va ma'naviyati haqida borar ekan, bu Vatan taqdiriga daxldorlik hissini tuyadigan har bir kishining burchi ekanini anglamog'imiz zarur. Darhaqiqat, mamlakatimiz istiqbolga erishgach, barcha jabhalarda, xususan, ta'lim sohasida, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish borasida qator tadbirlar ishlab chiqildi va ayni zamonda ularni amalga oshirish borasida ulkan yutuqlarga erishmoqdamiz. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini, ularning savodxonligini oshirish maqsadida darslarda turli zamonaviy vosita va usullardan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda.

Insonda mustaqil fikrlash, xulosa chiqarish va mustaqil amal qilish qobiliyati zamona va uning taraqqiyotiga mos tarzda shakllanmas ekan, uning har qanday turdagi faoliyatining natijasiyu samarasi ham talab darajasida bo'lmaydi. Chunki jamiyat taraqqiyoti mislsiz darajada ilgarilab bormoqda va bu hodisa insoniyat oldiga katta vazifalarni, keng qamrovli faoliyatni hamda uning yelkasiga cheksiz mas'uliyat yukini yuklamoqda. Bu esa insonni tezkor, tadbirkor va har qanday vaziyatda to'g'ri hamda aniq xulosa chiqarib, amal qilish qobiliyatiga ega shaxs bo'lishga undamoqda. Shunday ekan, inson tabiatiga shu xislatlarni yoshligidanoq sistemali tarzda singdirib, uni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

Ayni vaqtda, turli texnologiyalar rivojlangan zamonda, yoshlarimiz juda kam kitob o'qishadi, ularning mutolaa doiralari nihoyatda mahdud, deb noliymiz. Darhaqiqat, shunday. Hatto oliy o'quv yurtlarida testdan yuqori ball to'plab, talaba degan sharafli nomga musharraf bo'layotgan ko'pchilik talabalarimizning ham kitobga mehrlari ibrat olgulik darajada emas. Shular orasida umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitirib, o'ntacha kitob o'qimaganlari ham topiladi. Natijada o'quvchi oliy o'quv yurti talabasi bo'lgandan keyin yelkasiga tushadigan yukni tortolmay qoladi. Kuzatishlarimizdan xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu nuqsonning kelib chiqish sabablaridan biri o'quvchilarda mustaqil mutolaa qilish malakasini shakllanmaganligidadir. Agar bu ish boshlang'ich sinflardan boshlab ta'lim bir tizim va me'yor asosida yo'lga qo'yilsa, samarasi ham ko'ngildagiday bo'ladi.

Mamlakatimiz endi birinchi marotaba PIRLS xalqaro tadqiqoti doirasida olib boriladigan musobaqalarga qatnashdi. Ushbu xalqaro musobaqaga mamlakatimiz ulushini ko'paytirish uchun birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalari va mustaqil mutolaa malakasini shakllantirish kerak. Bunga erishish uchun esa quyidagi ish usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

Birinchidan, har bir sinfda kitoblar burchagi (kichik sinf kutubxonasi)ni tashkil qilish lozim. O'quvchi qancha ko'p kitob olami bilan bog'liq bo'lsa va uning ta'sirida yursa, u bilan har kuni bevosita va bilvosita muloqot qilsa, ularga bo'lgan mehri shuncha ortadi. Buxoro shahar 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali o'qituvchisi Oydin Adizova ota-onalar va maktab ma'muriyati yordamida tajriba sifatida o'zi dars beradigan sinfda sinf kutubxonasini tashkil qilgan edi. Unga har o'n besh kunda o'quvchilardan kutubxona mudiri (mudirasi) tayinlanadi. Kimning davrida o'quvchilar ko'proq kitob o'qisalar, o'sha yangi kitob bilan rag'batlantiriladi. Eng ko'p kitob o'qigan bola ham kutubxonadan o'ziga yoqqan kitobni olish imtiyoziga ega bo'ladi. Bu usul juda yaxshi samara bergan edi.

Ko'pincha o'qituvchilarimiz kitoblar burchagini nomigagina tashkil etib qo'yadilar. Unda uchto'rta kitob rasmiyat uchun qo'yiladi. Aslida ana shunday befarq munosabat va mas'uliyatsizlik o'quvchilarning kitobga bo'lgan mehrlarini so'ndiradi. O'qituvchi ishining samarasini ko'rmog'chi bo'lsa, kitoblar burchagini har oyda yangi kitoblar bilan to'ldirib borishi kerak. Burchak yonida har bir sinf o'quvchisi o'qishi shart bo'lgan hamda o'qituvchi tavsiya etgan kitoblar ro'yxati osib qo'yilishi lozim. Bundan tashqari, burchakda (yo kichik sinf kutubxonasida) «O'qish daftari» (o'quvchilarning mutolaa qilgan kitoblarini hisobga olish daftari)ning ham bo'lishi o'qituvchi ishini ancha yengillashtiradi. Daftari o'qituvchi tayinlagan mutasaddi talaba tomonidan to'ldirib boriladi. Har ikki oyda eng ko'p kitob mutolaa qilgan o'quvchilarning rasmlari maxsus burchakda namuna va ibrat sifatida chiqarilib qo'yiladi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'proq bolalarga bag'ishlangan she'riy kitoblarni o'qish tavsiya etilsa, maqsadga erishish osonroq bo'ladi. Chunki bolalarga bag'ishlangan she'rlar

ohangdor va ravon o'qiladi, satrlar (misralar) qisqaligi sababli ular tez o'qilib, bolani zeriktirmaydi, uni yod olish va takrorlash oson, kitob sahifasida belgilar (harflar) miqdori oz bo'lganligi sababli bola ko'zini toliqtirmaydi, she'rlarni o'qish va yodlash jarayonida bolalarning bog'lanishli nutqi rivojlanadi, eshitish va qabul qilish sezgilari, yod olish va yoddan aytish qobiliyati shakllanadi. Biz bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari nasriy asarlarni o'qimasin demoqchi emasmiz. Imkon qadar afsona, masal, hikoya kabi janrlarning nazmiy shakllaridan ko'proq foydalanilsa, samarasi ham shu qadar ko'zga ko'rinarli bo'lishini yana bir karra ta'kidlamog'chimiz, xolos.

Uchinchidan, bolalarning mutolaa qilgan asarini so'zlab berishini to'g'ri yo'lga qo'yish zarur. Agar o'quvchi mutolaa etgan she'riy masal yo' fasonani mustaqil hikoya qilish malakasini egallasa, uning atrofida bilan muloqot chegarasi ham kengayadi.

Hozirgi vaqtda turli xil hayvonlarning maska (rasm niqobi)si, insonlar qiyofasi maskalari magazinlarda sotilmoqda. O'qituvchi ana shulardan foydalanib bolalar o'qigan afsonalar asosida sahna ko'rinishlari tashkil etsa, rollarni ham o'quvchilarning o'zlari ijro etishsa, ularning kitobga bo'lgan munosabatlari ham ijobiy tomonga o'zgaradi. Ikkinchidan, o'zlari o'qigan asarni sahna ko'rinishda ko'rib, uning mazmun-mohiyatini yanada teranroq anglash, o'qib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, ularda mustaqil o'qish ko'nikmasi rivojlanadi, o'zlariga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Natijada u ko'proq kitob o'qish, bilim va tafakkur doirasini kengaytirishga harakat qiladi. O'qituvchi ehtiyotkorlik bilan o'quvchining bu xohish va maylini ham nazorat qilishi va rag'batlantirib borishi lozim. Ana shundagina kutilgan natijaga erishish osonroq bo'ladi.

To'rtinchidan, o'qituvchi birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni kutubxona bilan doimiy aloqada bo'lishini ta'minlashi va nazorat qilib borishi zarur. Bu jarayon jamoa bo'lib kutubxonaga borish, uning faoliyati va ishlash tartibi bilan tanishishdan boshlanadi. O'qituvchi o'z sinf jamoasini tantanali ravishda kutubxonaga olib boradi va kitoblar olamining o'ziga xos xususiyatlari borasida kutubxonachi yordamida o'quvchilarga qiziqarli hikoyalar aytib beradi, kitob olish va topshirish qoidalari bilan yaqindan tanishtiradi, yangi nashr etilgan bolalar adabiyotidan namunalar ko'rsatib, ularni o'qishga da'vat etadi. Bolalarga faqat maktab kutubxonasi haqidagina ma'lumotlarni berib, cheklanmaslik kerak. Ular yashaydigan shahar (tuman) kutubxonalari, ular joylashgan manzillar, ularning kitob fondi, ishlash vaqtlariyu u yerdagi tartib qoidalar, mazkur kutubxonadagi o'qish zallari borasida ham ma'lumotlar berish lozim. Agar imkoni bo'lsa shunday kutubxonalariga ekskursiyalar tashkil etilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilsa yanada yaxshiroq samara beradi. O'quvchi o'zi bilmagan holda kitoblar olamiga kirib boradi va uning sehrli olamiga maftun bo'lganini sezmay qoladi.

Yuqorida aytilgan taklif va mulohazalar o'qish darslari bilan mantiqiy bog'liqlikda va ma'lum tizim asosida muntazam amalga oshirilib borilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob o'qish madaniyatini hamda mustaqil mutolaa malakasini shakllantirish muammolari kamaygan va bolalar kitobxonligi ancha rivojlangan bo'lar edi. Bu esa mamlakatimiz boshlang'ich maktab 4-sinf o'quvchilarining PIRLS xalqaro baholash tizimida tashkil etiladigan musobaqalarga qatnashish imkoniyatini ta'minlashga zamin yaratadi.

“PIRLS” XALQARO TADQIQOTI: TARIXI, MAQSADI, METODOLOGIYASI, IMKONIYATLARI

Sh.U.Sariyev,

Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi” kafedrasi dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti tarixi, maqsadi, metodologiyasi, imkoniyatlari va ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Аннотация: *В этой статье обсуждаются история, цель, методология, возможности и важность международных исследований PIRLS в системе образования.*

Annotation: *This article discusses the history, purpose, methodology, opportunities and importance of international PIRLS research in the education system.*

Tayanch so'zlar: PIRLS, xalqaro tadqiqot, baholash dasturi.

Ключевые слова: PIRLS, международная программа исследований, программа оценки.

Keywords: PIRLS, international research program, evaluation program.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018-yil 8-dekabrda qabul

МУНДАРИЖА

O.X. Xamidov. YANGI BAHOLASH TIZIMI: XALQARO TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYALASHUVNI TA'MINLAYDI.....	3
Q.T.To'xсанov. TA'LIM SIFATI - O'ZGARISH VA RIVOJLANISH GAROVI	4

1– SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA XALQARO BAHOLASHNING TATBIQ ETILISHI..... 6

СЕКЦИЯ 1: ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОЦЕНИВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ..... 6

A.R.Hamroyev. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	6
N.T.Tosheva, N.Z.Qodirova. STEAM TA'LIMINING QO'LLANISHI, SAMARADORLIGI VA AFZALLIKLARI	7
Азимов Юнус Юсупович, Юсуфзода Шабнами Юнус. БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ (PIRLS) ТИЗИМИГА ТАЙЁРЛАШГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	10
С. Мирзаев. ХАЛҚАРО ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ВА БАҲОЛАШНИНГ ТАТБИҚ ЭТИЛИШИ.....	12
N.T.Tosheva, Sh.SH.Murodova. XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH.....	14
A.Y. Alimov. O'QUVCHILARNI TIMSS DASTURI BO'YICHA TAYYORLASHNING AHAMIYATI VA TATBIQIY MASALALAR.....	16
Sh. Yo'ldosheva, M. Hamrayev. BO'LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASH.....	18
M. R. Hamroyeva, Z. R. Homidova. BOSHLANG‘ICH SINFLAR ONA TILI DARSLIGIDA MASHQLARGA XALQARO BAHOLASH DASTURI BO'YICHA YONDASHUV	20
Sh.T. Qayumova. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O‘RNI	21
С.И.Холматова. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО БАҲОЛАШНИ ТАТБИҚ ЭТИШДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ	23
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Hasanova Mingjamol Husniddin qizi. XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH.....	25
M.B.Aliyeva. 4-SINF “ONA TILI” DARSLARIDA GAP BO'LAKLARINI O'QITISHNING ROLI VA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI AHAMIYATI.....	27
M.H.Hakimova, M. Sh. Hamidova. BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	28
Sh.M. Farmonova, TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	30
Ro'ziyeva M.Y. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH VA AMALIY YORDAM KO'RSATISH	31
N.Normurodova. XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH	32
Г.Т.Зарипов, С.Болтаев. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ.....	35
M. J. Yarashov. BOSHLANG‘ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMI	36

2– SHO‘BA: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI..... 39

СЕКЦИЯ 2: МЕЖДУНАРОДНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ PIRLS ПО ОЦЕНИВАНИЮ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ..... 39

U. A. Masharipova. PIRLS ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILAR O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODLARI.....	39
Y.Y.Azimov, R.A. Qo'ldoshev. PIRLS HALQARO BAHOLASH TIZIMIGA KITOB O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI ERISHISH.....	41
Sh.U.Sariyev, “PIRLS” XALQARO TADQIQOTI: TARIXI, MAQSADI, METODOLOGIYASI, IMKONIYATLARI.....	43
F.M.Qosimov, G.Shoirova. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA ARIFMETIK MASALALARNING O‘RNI.....	45

G. I. Idiyeva. PIRLS- XALQARO O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH TADQIQOTI XUSUSIYATLARI VA BAHOLASH BO'YICHA KO'RSATMALAR	48
G. H. Saidova, PIRLS XALQARO TADQIQOTINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI.....	50
M. R. Hamroyeva, M.A.Sharipova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARINING TASHKIL ETILISHI.....	53
SH.N.Qurbonova, N To`yboeva. BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PIRLS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI.....	54
M.Y.Ro`ziyeva, L.F.Salixova, BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI.....	56
Beisanbayeva Balzhan Sabyrzhanovna, Makhkamova Muattar Uktamovna. EMOTION IS A PHENOMENON THAT IS THE BASIS OF BEHAVIOR	58
Zheldybaeva Aisha Madibekovna, Dzhumaev Mamanazar Irgashevich. OPPORTUNITIES FOR FORMATION OF NATIONAL CONSCIOUSNESS FOR YOUTH	59
Aripbayeva L.Sh., Serikbayeva K.K., Baigunova D.M., Musayeva Nargiza Hashimzhanovna. EMOTIONAL FEATURES OF ADOLESCENTS.....	62
Мусахожиева (Маъруфжонова) Д.Б. ПРИМЕНЕНИЕ СИСТЕМЫ PIRLS ПРИ ОЦЕНИВАНИИ ЗНАНИЙ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	64
Юлдашева М. М., Бафаева Д. РУССКИЙ ЯЗЫК И ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ОСНОВА ОБУЧЕНИЯ PIRLS.....	66
S.T.Ergasheva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI	67
M. I. Abdullayeva, S. S. To`rayeva. PISA-XALQARO BAHOLASH DASTURI -O'QUVCHILARDA XXI ASR KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI	69
3-SHO'BA: MILLIY O'QUV DASTURINING AMALIYOTGA JORIY ETILISHI.....	72
СЕКЦИЯ 3: ВНЕДРЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ	72
M. Djumayev. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'QUV DASTURINI AMALIYOTGA JORIY ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	72
Z. A. Saydivaliyev. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA MILLIY O'QUV DASTURINI JORIY ETISH MASALLARI.....	75
A. S. Abdusamatov, X. Sh. Ibragimova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASHDA "MILLIY O'QUV DASTURI" DAN FOYDALANISH	77
M.M.Qosimova, N.Ergasheva. O'QUVCHI MANTIQUIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH – MILLIY DASTUR TALABI SIFATIDA	80
Г. Равшанова. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	82
N.B.Adizova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA "GAP" MAVZUSINI O'RGANISHDAGI IZCHILLIK	83
N.B.Adizova. "ALIFBE" DARSLIGI ASOSIDA IMLO USTIDA ISHLASH.....	85
Д. Омонов. БИРИНЧИ СИНФДА ИЛМИЙ - ОММАБОП МАТНЛАРНИ ЎРГАТИШ УСУЛЛАРИ	87
M.M.Tilavova, N. I. Tursunova. TEXNOLOGIYA DARSLARINI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA TASHKIL QILISH	89
Qoraboyev Husniddin Kamolovich. MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA 2- SINFLARDA O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK XUSUSIYATLARI.....	91
4-SHO'BA: BOSHLANG'ICH TA'LIMNI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	94
СЕКЦИЯ 4: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	94
Г.Т.Боймуродова. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	94
G. M. Sayfullayev, N. Haitova, SINFDAN TASHQARI ISHLARDA O'QUVCHILARNING TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING SHAKL VA METODLARI.....	96